

[PDF-faylidagi rasmiy manba](#)

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### **O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETINING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Chet tillarini o'rganishni yanada rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiq umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lif muassasalari uchun chet tillari yuqori malakali o'qituvchilarini tayyorlash darajasi va sifatini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti chet tillari bo'yicha uzlusiz ta'lif tizimining respublika bazaviy ta'lif va ilmiy-metodik muassasasi etib belgilansin.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalar yuklatilsin:

chet tillarini o'rgatishning zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyaviy texnologiyalariga ega bo'lgan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lif muassasalari uchun chet tillari bo'yicha yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash;

zarurat taqozo qilganda, xalqaro konsultantlarni jalb etgan holda butun uzlusiz ta'lif tizimi uchun chet tillari bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq davlat ta'lif standartlari, o'quv rejalarini va dasturlarini, o'quv hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va doimiy tarzda takomillashtirib borish;

uzlusiz ta'lif tizimining barcha ta'lif muassasalarida, shuningdek chet tillari bo'yicha malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash muassasalarida xalqaro tajribani o'rganish asosida chet tillarini o'qitishning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

avvalo pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash sohasidagi profilli oliy o'quv yurtlari va muassasalarida chet tillari o'qituvchilarini va uslubchilarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish.

*Oldingi tahrirga qarang.*

(2-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrdagi PF-6311-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrdagi PF-6311-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-son)

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-fevraldagi R-3971-sonli farmoyishi bilan tuzilgan Respublika komissiyasi (R.S. Azimov) Universitetga yuklatilgan asosiy vazifalardan kelib chiqqan holda shu yilning 1-avgustigacha Universitetning rahbar kadrlar va professor-o'qituvchilarini, attestatsiya qilinayotganlarning bilimlarini baholashda yuksak talabchanlik, prinsipiallik hamda xolislik sharoitida attestatsiyadan o'tkazishni ta'minlasin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

(5-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-avgustdagi PF-214-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.08.2022-y., 06/22/214/0791-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

6. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida dars berish uchun chet tili mutaxassislarini jalb etishda, shuningdek chet tillari bo'yicha o'qituvchi va mutaxassislarni tayyorlash sohasida hamkorlik qilish uchun dunyoning yetakchi universitetlari bilan yaqin aloqani yo'lga qo'yishda doimiy asosda ko'maklashsin.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son)

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti yangi o'quv-ma'muriy binosini va sport

majmuasini qurish, shuningdek universitetning mavjud o'quv binolarini, axborot-resurs markazi va ijtimoiy-maishiy infratuzilma obyektlarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi PQ-1533-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2011—2016-yillarda oliy ta'lif muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash Dasturiga tegishli tuzatishlar kirtsin;

bir oy muddatda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va kengaytirish bo'yicha qaror qabul qilsin. Unda 2014-yilda yangi o'quv-ma'muriy bino qurilishini boshlash ko'zda tutilib, universitet obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha buyurtmachi etib O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining "Yagona buyurtmachi xizmati" Injiniring kompaniyasi hamda bosh loyiha tashkiloti etib "O'zog'irsanoatloyiha" OAJ belgilansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi 2013-yil va kelgusi yillarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti parametrlari doirasida maqsadli mablag'lar, shu jumladan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida qurilish-tiklash va ta'mirlash ishlariga, moddiy-texnik jihozlashga, shuningdek chet tillardagi adabiyotlarni sotib olishga, jurnallar va boshqa davriy nashrlar hamda elektron axborot-kutubxona resurslariga obuna bo'lishga zarur kapital mablag'lar limitini ajratishni nazarda tutsin.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-noyabrdagi PF-3-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son)

9. Chet tillarni o'rganish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida davlat ta'lif muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan kompyuter texnikasi, maxsus asbob-uskuna va inventarlar istisno tariqasida, 2017-yilning 1-yanvarigacha bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvni yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod qilinsin.

 LexUZ sharhi

9-bandga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699-sonli qaroriga asosan o'zgartirish kiritilgan. Rus tili matniga qarang.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda qonun hujjalari ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risidagi taklifni bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga kirtsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinosi R.S. Azimov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosi A.I. Ikromov zimmasiga yuklansin.

## O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,  
2013-yil 23-may,  
PQ-1971-son

*Oldingi tahrirga qarang.*

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrdagi PF-6311-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrdagi PF-6311-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-avgustdaggi PF-214-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.08.2022-y., 06/22/214/0791-son)

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2013-y., 22-son, 279-modda; Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-son, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son; 31.08.2022-y., 06/22/214/0791-son)

